



**“BOSHSIZ ODAM” HIKOYASIDAGI OJIZ AYOL NISO BUVI
OBRAZI**

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti o’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi talabasi.
pardaboyevaadiba@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhor qalamiga mansub, “Bosh siz odam” hikoyasining ma’no va mazmuni, Niso buvining jamiyatdagi ojiz ayollar obrazini ochib bergenligi, jamiyatda ayollarning o’rni, atrofdagilarning gap so’zlaridan charchaganligi uchungina noilojlikdan rozi bo’lishi, kimdir bolalariga ota kerakligi uchun turmushga chiqdi desa, yana kimdir avvaldan bularning orasida yaqinlik munosabatlari bo’lgan deb aytishadi. Maqolada Abdurahmon kabi zo’ravon insonlarning jihatni va ayollarning haq-huquqlarining poymol etilishi jihatlari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: Niso, usta Abdurahmomon, zo’ravonlik, urish, kulmoq, to’y, tumor, bosh siz odam, to’qqiz yil, homiladorlik, kaklik, Faxriddin.

ОБРАЗ БАБУШКИ НИСО В РАССКАЗЕ «ЧЕЛОВЕК БЕЗ ГОЛОВЫ»

Парда боева Адиба Шухрат кизи

Студент по направлению Узбекский язык и литература Нукусского государственного педагогического института.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Аннотация: В этой статье Абдуллы Каххора, раскрывающем смысл и содержание рассказа «Человек без головы», бабушка Нисо раскрыла образ слабой женщины в обществе, роль женщины в обществе, ее недовольство недовольством только потому, что она устала от того, что говорят окружающие ее люди, кто-то говорит, что она вышла замуж, потому что ей нужен был отец для своих детей, а кто-то говорит, что раньше между ними были интимные отношения. В статье раскрываются аспекты таких жестоких людей, как Абдурахман, и нарушения прав женщин.

Ключевые слова: Нисо, мастер Абдурахмамон, насилие, избиение, смех, свадьба, амулет, человек без головы, девять лет, беременность, куропатка, Фахриддин.





THE IMAGE OF GRANDMOTHER NISO IN THE STORY “THE HEADLESS MAN”

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Student majoring in Uzbek language and literature at Nukus State Pedagogical Institute.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Abstract: In this article, by Abdulla Qahhor, the meaning and content of the story “The Headless Man”, Niso's grandmother revealed the image of weak women in society, the role of women in society, her dissatisfaction with discontent only because she was tired of what people around her said, someone says that she got married because she needed a father for her children, and someone says that there was an intimacy relationship between them before. The article reveals the aspects of violent people like Abdurahman and the violation of women's rights.

Keywords: Niso, master Abdurahmamon, violence, hitting, laughter, wedding, amulet, headless man, nine years, pregnancy, partridge, Fahriddin.

KIRISH

“Boshsiz odam” hikoyasining ma’no va mazmuni, Niso buvining jamiyatdagi ojiz ayollar obrazini ochib berganligi, jamiyatda ayollarning o‘rni, atrofdagilarning gap so‘zlaridan charchaganligi uchungina noilojlikdan rozi bo‘lishi, kimdir bolalariga ota kerakligi uchun turmushga chiqdi desa, yana kimdir avvaldan bularning orasida yaqinlik munosabatlari bo‘lgan deb aytishadi. Maqolada Abdurahmon kabi zo‘ravon insonlarning jihatni va ayollarning haq-huquqlarining poymol etilishi jihatlari ochib berilgan.

Hikoyamizning markazida eridan ayrilgan Niso buvi, keyinchalik atrofdagilarning gap va so‘zlaridan charchab, usta Abdurahmonga tegishga rozilik beradi. Ayol kishining chetdagi gaplardan, odamlarning qarashlariga qarab, noilojlikdan qaror chiqarishini xato deb bilaman. Inson hayotiga umryo‘ldosh tanlar ekan, keyingi hayotini o‘z-o‘ziga o‘zi tanlagan bo‘ladi. Umryo‘ldoshing yaxshi inson bo‘lsa, seni hamisha baxtli qilishga harakat qiladi. Ammo aksi bo‘lsa-chi? Niso buvi uchun Abdurahmonga tegishi haqiqiy va ruhiy jihatdan ham fojea bo‘ldi.

Usta Abdurahmonning qizlarga nisbatan qo‘polligi, hattoki zo‘ravonligi qarshisida Niso buvi ojiz. U o‘z qizlarini internatga bermoqchi bo‘ladi, ammo erining tahqiri, maslahatsiz ish qilishdan qo‘rqishi uni to‘xtatadi. Bunda uning ayollik zaifligi emas, balki jamiyatda ayolning qadri past o‘rinda ko‘rilishi misol bo‘ladi. Usta





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Abdurahmon hamisha o‘zini haq deb biladigan va zo‘ravon, buyruqboz va mutlaqo rahmsiz inson. Chunki, bo‘yi yetgan qizlarini urishi mutlaqo xato. Xalqimizda azal-azaldan bir gap bor: qizini urgan otaning qizi baxtsiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun otalarimiz xato qilganimizda ham dakki berishlari, qattiq gapirib berishlari mumkin, ammo urishmaydi.

Bu masalada ehtiyotkor bo‘lishadi. “Men urayotganimda kulmasang uch taloqsan” degan so‘zlarda Niso buvining insoniylik maqomini toptalganini ko‘ramiz. Endi u jismoniy qiynoqlarga chidasa ham, ichki his-tuyg‘ularini ifoda qilishdan mahrum etiladi. Har safar erining urushiga “kulish” orqali ayol o‘zini inkor qilishga majbur bo‘ladi. Bu kulgi – norozilik emas, ojizlik, mag‘lubiyat ramzidir. U o‘zini oila boshlig‘i emas, hukmdor deb hisoblaydi. Qizlarni uradi, ularni o‘qishga yuborishga qarshi chiqadi, Mehrining taqdirini uning roziligesiz hal qiladi – «Chorshanba kuni to‘y!» deb e’lon qiladi. Bu harakatlar zamonaviy til bilan aytganda – ayollar huquqlarini poymol qilishning ochiq ifodasi. Afsuski, ilmsizlik oqibatida qizlarimiz turli xil havaslarga berilib,yoki kimningdir fikri bilan shoshqaloqlik asosida fikr bildirish oqibatida bu kabi voqealarga duch kelishlari mumkin.

Faxriddinni haddan tashqari erkalatadi, unga yetimlik bahonasida hamma narsani ruxsat etadi. Mehri bilan to‘y qilinishi ham mehr emas, balki o‘z istagini o‘tkazish uchun qilinadi. Mehri bo‘yida bo‘lib qolganida: “Xotinning urug‘i Hirotdan kelgan emas!” deb mazax qiladi. Bu o‘z farzandiga emas, o‘z g‘ururiga xizmat qiladigan odam timsolidir. G‘urur bo‘lganda ham, qizlarni himoya qiluvchi obraz emas, ularni ustidan kulib, hamisha ayollar pastki o‘rinda degan qarash bilan yashab yuradi. Buning oqibatida ayoli va qizlari ham aziyat chekishadi. Aksiga olib, kuyov bilan qaynotaning urug‘i bir joydan olinadi degandek, kuyovi ham uning o‘zi bo‘lib chiqadi. Faqat u otasining gapiga qarab yurivchi, o‘zining mustaqil fikri yo‘q obraz sifatida hikoyada keltiriladi. U nikohdan keyin ham, kasalxonadagi holatda ham jiddiylik ko‘rsatmaydi.

Xulosa qilib aytishimiz joizki, hikoyamizdagи boshsiz odam asli Faxriddin. Chunki, u hechqachon o‘zining shaxsiy fikriga ega emas. O‘zi mustaqil ravishda qaror chiqara olmaydi. Otadan so‘raladigan va so‘ralmaydigan masalalarni ham o‘ylab o‘tirmasdan so‘raydi. “Men bilmasam, dadam biladi” degani – o‘z qarorini chiqarishdan yiroqligini ko‘rsatadi. Eng dramatik lahzalarda ham Faxriddin kuladi, burnini artadi, indamay turadi. Bu nafaqat bolaning o‘z holicha “bosh”siz tug‘ilganiga ishora, balki Faxriddinning o‘zining ham “fikr, javobgarlik, yurak”dan mosuvo ekanligining timsolidir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanimanligi adabiyotlar

1. [Abdulla Qahhor kichik hikoyalar ustasi](#)
2. <https://azkurs.org/abdulla-qahhor-kichik-hikoyalar-ustasi.html>
3. Abdulla Qahhor, “Anor” hikoyasi, 2012

